



Hamza Imonberdiyev 1954-yil 21-dekabrda qo'shni Qozog'iston Respublikasining Chimkent viloyatiga qarashli Suzoq qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. Shoir uzoq yillar "Tong yulduzi" gazetasining adabiyot bo'limini boshqardi. Hamza Imonberdiyev "Cho'lpon" nashriyatida muharrir vazifasida xizmat qildi. Uning "Quvnoqlar quvonchi", "Shokoladxo'rlar", "G'aroyib pufak", "Kulgi shaharchasi" singari o'ndan ortiq kitoblari nashr etildi.



## O'q

*Hamza Imonberdiyev*

Nafasin bir dam rostlab,  
Uchib ketdi kamon o'q.  
Yon-veriga boqmasdan  
Uchib borar hamon o'q.

O'yga botib borar u,  
Qora ajal qo'lida.  
Kelib qoldi ro'baro',  
Ona Jayron yo'lida.

Quyosh ko'kda qotdi tosh,  
Nafasini yutganча.  
Gullar ma'yus egdi bosh,  
O'zligin unutganча.

Qochar Jayron quyunday,  
**Tuyog'idan chaqnar o't.**  
– Jon O'q, tegma, uyimda  
Kutar bolam, **ko'zi to'rt!**



O'q voz kechib nishondan,  
O'tib ketdi bir yondan.

Hamon uchib borar u,  
Qora ajal qo'lida.  
Kelib qoldi ro'baro'  
Keksa Chinor yo'lida.

– Hoy, ko'zingga qara-da, –  
Titrab dodladi Chinor.  
– Bag'rimdagi inlarda  
Axir, polaponlar bor.

O'q voz kechib nishondan,  
O'tib ketar bir yondan.

Noilojlikdan oxir  
**Sabr kosasi to'lib,**  
**Shahd bilan pastga**  
**sho'ng'ir,**  
Yerga sanchilmoq bo'lib.

Titrab ketar Yer nogoh:  
– Sensiz ham, ey masxara,

Yurak-bag'rim o'chmas  
dog',  
Yuz mingta bitmas yara.  
Ilojsiz, nochor qolib,  
Yo'lda davom etar O'q.  
O'qligidan ming nolib,  
Olislarga ketar O'q.

Yer dumaloq emasmi,  
Holdan toygan payti u.  
Buni qarangki, asli  
Uchgan joyga qaytdi u.

Xuddi shu payt **shum**  
**kishi**

Boshqa o'qni joylardi.  
Alam-la qayrab tishin,  
Kimlarnidir poylardi.

U quloq ham qoqmadi  
Ajaling sharpasiga.  
Uchib kelib sanchildi,  
O'q shundoq orqasiga...





1. Kamon o'q yo'lida ilk bor nimaga duch keldi?
2. O'q nima uchun kekxa Chinorga, Yerga sanchilishdan voz kechdi?
3. U asli uchgan joyiga qanday qilib qaytib keldi?
4. Siz she'rdagi o'qni nimaga o'xshatdingiz? Fikringizni izohlang.
5. Sizningcha, nima uchun she'r aynan shu bo'limda berilgan?
6. She'rda qanday g'oya ifodalanyapti?



**ro'baro'** – qarama-qarshi kelish



She'rda ishtirok etgan qahramonlarni aniqlang. She'r qahramonlarining so'zlari berilgan misralarni o'qing. Quyidagi satrlarni izohlang:

*Yurak-bag'rim o'chmas dog',  
Yuz mingta bitmas yara.*

She'rda ajratilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiring. She'rdagi o'qqa ta'rif bering. Berilgan savollarni she'r mazmuniga mos holda to'ldirib tuzing.

*Agar ... bo'lsa nima bo'ladi?  
Tasavvur qilaylik...*



**She'ni ifodali o'qing. She'rdan olgan taassurotingizni yozing.**